

УДК 378

**МЕТОДЫ ВОСПИТАНИЕ МОЛОДЕЖИ В ДУХЕ БОРЬБЫ СО ЗЛОМ**Д. Хотамова<sup>1</sup>*Аннотация*

В статье проанализирована методика воспитания молодежи в духе борьбы со злом в системе учебно-воспитательного процесса.

*Ключевые слова:* методы воспитания, вредный, гуманитарный, моральное воспитание.

Tarbiya qoidalari pedagogik ta'lim va tarbiya jarayonini yaxshiroq tashkil e'tish maqsadida foydalaniladigan boshlang'ich holat, rahbarlik asosidir. Ta'lim qoidalari o'qituvchi, tarbiyachilarga yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi qoidalar hisoblanadi, yangi kishini shakllantirish vazifalari bilan belgilanadi. Tarbiya qoidalari sharq va markaziy Osiyo faylasuf donishmandlarining fikrlari va milliy pedagogikada e'rishgan yutuqlarga asoslanadi. Tarbiyaning mazmuni, tashkil e'tishi, usullari va ularga qo'yiladigan talablar shu qoidalarda o'z ifodasini topadi.

- tarbiyaning ma'lum maqsadga qaratilganligi
- tarbiyaning insonparvarligi va demokratligi
- tarbiyaning hayot va mehnat bilan bog'liqligi
- tarbiyada milliy madaniy va umuminsoniy qadriyatlarining utsivorligi
- o'qituvchining yoshini va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish
- izchillik, tizimchilik, o'zluksizligi.

"Metod" - so'zi grekcha bo'lib yo'l usul ma'nosini bildiradi. Tarbiya vositalari bu biron bir tarbiyaviy masalani maqsadga muvofiq yo'l bilan hal qilishni tashkil e'tish uchun ishlatiladi. Tarbiya vositalari tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish uchun o'qituvchi tarbiyachining tarbiya tizimiga kiritilishi lozim. Tarbiya natijalari tarbiyaviy jarayonining usullari, uslubi, vositalari va shakllaridan moxirona foydalanishga bog'liq. Tarbiya usullari bir bolaga, xar qaysi bolalar jamoasiga alohida munosabatda bo'lishni nazarda tutadi. SHunday qilib tarbiya jarayonida o'qituvchi yakka o'quvchiga yoki sinf manfaati yo'lida biron bir tarbiyaviy masalani hal qilish uchun o'quvchilarni yosh va individual xususiyatlarini. Tarbiyalanganlik darajasini, pedagogik vaziyat xarakterini hisobga olgan xolda ta'sir e'tish shakllari majmuasiga tarbiya metodi deyiladi. Tarbiya g'oyatda murakkab jarayon bo'lib har davrning ijtimoiy siyosiy hayotini o'zida aks ettiradi. Uning usullar, shakllari, vositalari va omillari asrlar davomida shakllanib takomillashadi, an'anaga aylanadi. SHu sababli tarbiya milliy va tarixiy zamindan o'zilmasligi kerak.

Yoshlarda bugungi kundagi zararli oqibatlariga qarshi kurashish ruhida tarbiyalash uchun ularni avvalo o'z-o'zini tarbiyalashga o'rgatish, o'zi ustidan nazorat o'rnatish ruhida tarbiyalash kerak.

**O'z- o'zini tarbiyalash usullari.**

O'z o'zini tarbiyalash sifatleri bola bunga tayyor bo'lganda, u o'zini shaxs deb anglay boshlagach, amaliy ishlarda mutsaqillik ko'rsata boshlagan vaqtdan boshlanadi. O'z o'zini tarbiyalashda (axloqiy, jinsiy, intementual, xissiy-irodaviy) maslaxat va ko'nikmalar berilishi lozim.

- o'z o'zini tahlil qilish
- o'z o'zini baholash o'z o'ziga xolisona baho berish, qoniqish hosil qilish va o'z hatti-harakatlarini nazorat qila olishdan iborat.

Bugungi kunda zararli odatlardan biri bu chekish va spirtli ichimliklarni istemol qilishdir. Chekish odatiga yoshlarning qiziqishi asosan osmirlik davrida paydo bo'ladi. Bu davrda har narsaga qiziquvchanlik, o'zini kattalardek his qilish, kattalarga taqlid qilish, do'stlarini hayratga solish maqsadida bu yo'lga kirgan yoshlar ko'pchilikni tashkil qiadi. Bu holatda avvalambor ota-onalar, ta'lim maskani, mahalladoshlar bu narsaga parda ostidan qaramasdan tushuntirish, chekuvchi yoshlarni uning oqibatlari haqida

<sup>1</sup>*Хотамова Дилдора*, студентка, Бухарский государственный университет, Узбекистан.

misollar keltirib, to'g'ri yo'lga boshlashlari zarur. Bunday yoshda ularga tanbeh bermasdan, do'stona munosabatda bo'lib, ular bilan suhbatlashish, zararli odatlarning ayanchli oqibatlarini haqida turli misollar keltirish kerak.

Tarbiya jarayonida yoshlarni zararli odatlarga qarshi kurash ruhida tarbiyalashda oila, ta'lim muassasasi va mahalla hamkorlikda ish olib borishi va ularni ma'naviyatini shakllantirish, ularning qiziqishlaridan kelib chiqib turli fan va sport to'garaklariga jalb qilish zarur. Yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish ularning yot g'oyalardan asrash, kitobga bo'lgan qiziqishini oshirish tarbiyaning samarali usullaridan biridir. Zamonaviy ma'naviy tahdid va xatarlarni to'g'ri baholab, ulardan tegishli xulosa va saboqlar chiqarish zamon talabidir. Tarbiyaning turli usullaridan foydalanib, ota-onalar bilan hamkorlikda ishlash, zamonaviy yoshlar tarbiyasi muammolarini birgalikda hal etish, milliy tarbiyani mahalla, mahalla oqsoqollari kengashi faoliyati yo'nalishiga aylantirish va ota-onalarning tarbiyachilar sifatida faolliklarining oshishiga olib keladi. Buning natijasida yoshlarimizning ma'naviy-ahloqiy tarbiyasida hech qanday yot goyalarga o'rin qolmaydi,

*Фойдаланилган адабиётлар:*

- 1.Shodmonov Sh. Hoshimova M. Fayzullayeva H. Tarbiyaviy ishlar uslubiyati. O'quv qo'llanma.-T:TDIY, 2009
- 2.G'aybo'llaev N.va boshqalar Pedagogika,Toshkent, 2000,38-46 boshqalar.

© Д. Хотамова, 2019.

---